

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TABIATNI ANGLASH ORQALI SHAXSDA EKOLOGIK ONGNI RIVOJLANTIRISH

Tog'ayeva Oybarchin Dosmamat qizi,

Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti Samarqand filiali

"Pedagogika va Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

mustaqil tadqiqotchi

oybarchin3262@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda tabiatni anglash orqali ekologik ongni shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Unda ekologik ta'limning mazmuni, uning shaxs kamolotidagi o'rni hamda o'quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar, kuzatish, tajriba va amaliy faoliyatning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqolada tabiat bilan bevosita muloqot qilish orqali o'quvchilarda mas'uliyat, ekologik tafakkur va atrof-muhitni asrashga doir qadriyatlarni shakllantirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tabiatni anglash, ekologik ong, ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, interfaol metodlar, kuzatish, tajriba, amaliy faoliyat, atrof-muhitni asrash, shaxs rivoji, mas'uliyat.

DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL AWARENESS IN AN INDIVIDUAL THROUGH UNDERSTANDING NATURE IN PRIMARY EDUCATION

Oybarchin Dosmamat qizi Tog'ayeva,

Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology,

Samarkand Branch, Kimyo International University in Tashkent,

Independent Researcher

Abstract. *This article analyzes the issues of forming and developing ecological awareness in students through understanding nature in the process of primary education. It highlights the content of environmental education, its role in personal development, and the pedagogical opportunities for shaping students' conscious attitudes toward nature. The study also emphasizes the importance of interactive methods, observation, experiments, and practical activities used in the educational process to develop ecological culture among primary school students. In addition, the article discusses ways of fostering responsibility, ecological thinking, and environmental protection values through direct interaction with nature.*

Keywords: *primary education, understanding nature, ecological awareness, environmental education, ecological culture, interactive methods, observation, experiment, practical activities, environmental protection, personal development, responsibility.*

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ ЛИЧНОСТИ ЧЕРЕЗ ПОНИМАНИЕ ПРИРОДЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Тогаева Ойбарчин Досмамат кизи,
*преподаватель кафедры педагогики и психологии,
Самаркандский филиал Ташкентского международного
университета Кимё, независимый исследователь*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития экологического сознания у учащихся через познание природы в процессе начального образования. Освещается содержание экологического образования, его роль в личностном развитии и педагогические возможности формирования у школьников осознанного отношения к природе. Также подчеркивается значение интерактивных методов, наблюдений, экспериментов и практической деятельности в образовательном процессе для развития экологической культуры*

у младших школьников. Кроме того, рассматриваются пути формирования ответственности, экологического мышления и ценностей охраны окружающей среды через непосредственное взаимодействие с природой.

Ключевые слова: начальное образование, познание природы, экологическое сознание, экологическое образование, экологическая культура, интерактивные методы, наблюдение, эксперимент, практическая деятельность, охрана окружающей среды, личностное развитие, ответственность.

Boshlang'ich ta'limda tabiatni anglash orqali shaxsda ekologik ong bilan bir qatorda vatanparvarlik va baynalmilalchilik tuyg'ularini shakllantirish asosiy tarbiyaviy vazifalardan biridir. Bu borada "klaster" metodi o'zining yuqori didaktik salohiyati bilan ajralib turadi. Klaster usulidan foydalangan holda o'quvchilar tabiat haqidagi fikr-mulohazalarini mustaqil ifodalab, o'z bilimlarini vizual tarzda tizimlashtirishga o'rganadilar. Bu esa ularning shaxsiy fikrlash, umumlashtirish va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantiradi [1].

Klaster usuli nafaqat ekologik tushunchalarni o'zlashtirishga, balki tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishga ham xizmat qiladi. O'quvchilar bu orqali o'z vatani tabiatining xilma-xilligi, muhofazasi va estetik go'zalligini anglab etadilar. Mazkur metod o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiribgina qolmay, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini ham shakllantiradi [2].

Jamiyatda vatanparvarlik tarbiyasini baynalmilalchilik ruhida to'liq amalga oshirib bo'lmaydi. Baynalmilalchilik - bu boshqa millatlarga hurmat, birgalikda tinch yashash, umumiy qadriyatlarni anglash madaniyati bo'lib, u o'quvchining global ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik tarbiya esa bu g'oyalar uchun qulay pedagogik vositadir [3].

O'lkashunoslik ishlari, maktab maydonchasida olib boriladigan amaliy mehnat, ekskursiyalar – bularning barchasi o'quvchining shaxsiy tajribasiga asoslangan ta'limiy faoliyatdir. Aynan shu faoliyat orqali o'quvchilarda o'z yurtiga nisbatan muhabbat, tabiatini asrash hissi, mas'uliyat, vatan taqdiriga daxldorlik kabi jihatlar shakllanadi [4].

Masalan, 3-4-sinflarda “Yer yuzi tabiatining xilma-xilligi” va “Foydali qazilmalar” mavzulari o‘z yurti bilan faxrlanish, uning tabiiy boyliklarini qadrlashga undaydi. O‘quvchilar sinfda olgan nazariy bilimlarini o‘z hududidagi real holat bilan solishtirib, tabiat resurslarining himoyasi haqida chuqur o‘ylashga majbur bo‘ladilar⁶⁴. Bunday yondashuv o‘quvchilarni milliy g‘urur bilan to‘ldiribgina qolmay, ularda buyuk vatandoshlar, jumladan, O‘zbekistonlik olimlarning ilm-fanga qo‘shgan hissasi haqida ham motivatsion fikr uyg‘otadi. Bu esa yosh avlodda taqlidga arzigulik ilmiy namunalar va mehnatga hurmat tuyg‘ularini rivojlantiradi. Vatan mavzusi boshlang‘ich ta’limdagi barcha fanlarda, ayniqsa, tabiiy fanlar orqali uzviy tarzda o‘tib boradi. Tabiat manzaralarini o‘rganish orqali xalqning bunyodkorlik faoliyati, mehnat madaniyati va atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyati ochib beriladi. Bu esa o‘quvchilarda yurt ravnaqi uchun kurashishga, uni asrashga da’vat qiluvchi hissiyotlar uyg‘otadi. Misol tariqasida, 4-sinf “Tabiatshunoslik” darsligida berilgan “Respublikamiz xalqlarining do‘stona hayoti” bo‘yicha mavzularni ko‘rgazmali materiallar va hissiy hikoya bilan boyitish o‘quvchilarda ijobiy ta’sir uyg‘otadi. Bu metod baynalmilalchilikni, irq va millatidan qat’i nazar, barcha insonlarning hamkorlikda yashashi mumkinligi haqidagi ishonchni tarbiyalaydi.

Tabiatga muhabbat – bu insonning oliy hissiy-estetik, ma’naviy-intellektual darajadagi yuksak kechinmalaridan biridir. U nafaqat tabiat go‘zalligidan bahramand bo‘lish, balki uni anglash, asrash va kelajak avlod uchun saqlab qolish istagiga asoslanadi. Ushbu tuyg‘u bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni tarbiyalash jarayoni erta yoshdan boshlab yo‘lga qo‘yilishi zarur [5].

Boshlang‘ich sinfda ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ekologik madaniyat va tabiatga mehr hissi darslar, ekskursiyalar, ko‘rgazmalar, o‘lkashunoslik ishlari orqali bosqichma-bosqich shakllanadi. Aynan shu davrda “Jonajon tabiat”, “Ona tabiat” kabi tasviriy ifodalar orqali bola o‘z vatani, o‘z o‘lkasining tabiatiga mehr bilan qarashni o‘rganadi [6].

Dissertatsion tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, boshlang‘ich ta’limda tabiatga muhabbatni shakllantirish uchun o‘quvchilarda quyidagi psixologik- komponentlar bo‘lishi lozim: sezgirlik, mas’uliyat, qadrlash, ekologik ong, ijobiy hissiy reaksiya. Bu

komponentlar orqali bola faqat tabiatni himoya qilish emas, balki uni boyitishga ham ichki ehtiyoj sezadi [7].

Tabiiy fanlar darslari - bu hissiyotlarning shakllanishida asosiy vositadir. Tabiatdagi go'zallikni qabul qilish, undan zavqlanish va uni himoya qilish istagi aynan bu fanlar orqali yoritiladi. Ularning mazmuni o'quvchilarda ekologik dunyoqarash, ekologik tafakkur, tabiatni anglashga bo'lgan ongli munosabatni shakllantiradi [8].

Tabiatning boyliklari cheksiz emas. Ularni ehtiyotlash, muhofaza qilish va oqilona foydalanish - zamonaviy ekologik ta'limning asosiy maqsadidir. Bu borada o'quvchilarga "tabiat resurslari – insoniyat hayotining asosi" degan tushuncha tushuntiriladi. Shuning uchun har bir bola maktab davridayoq tabiatni muhofaza qilishni o'zining fuqorolik burchi sifatida anglab etmog'i zarur. O'lkamiz fuqarolari tabiatni ehtiyot qilishlari, uning boyligini muhofaza qilishlari kerak, degan fikrni mustahkamlashda rus yozuvchisi M. Prishvinning quyidagi fikrlari juda dolzarb va ta'sirli:

"Biz tabiatimizning egalari va biz uchun u – h ayotning ulkan qimmatbaho narsalari bilan to'lgan quyosh omboridir. Bu qimmatbaho boyliklarni muhofaza qilish etarli emas, ularni kashf qilish va ko'rsatish kerak. Baliq uchun toza suv kerak – suv havzalarini himoya qilishimiz kerak. O'rmonlarda, cho'llarda, tog'larda turlicha qimmatli hayvonlar bor – o'rmon, cho'l va tog'larimizni himoya qilaylik. Baliqqa – suv, qushga – havo, darrandaga – o'rmon, cho'l, tog'lar kerak. Insonga esa Vatan, demak, tabiatni muhofaza qilish – Vatanni himoya qilishdir". Mazkur fikrlar o'quvchilarda shunchaki bilim emas, balki hissiy, axloqiy va ma'naviy munosabatni shakllantirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Aynan shunday ruhdagi materiallar ekologik tarbiyaning ta'sirchanligini oshiradi va bolalarda tabiatga nisbatan daxldorlik hissini uyg'otadi.

Shaxsning ma'naviy dunyosi, uning ichki ruhiyati orqali namoyon bo'ladi. Bu ruhiyat tashqi dunyo bilan tuyg'ular orqali bog'lanadi. Shu jihatdan ekologik ongni shakllantirishda hissiy idrok – atrof-muhitga nisbatan sezuvchanlik, e'tibor, qiziqish muhim ahamiyat kasb etadi. Idrok – bu tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarning sezgi organlari orqali ongga kirib borishi natijasida yuzaga keladigan murakkab psixologik

jarayondir. Bu jarayon ekologik tarbiya mazmunida, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida jiddiy rol o'ynaydi.

Har bir insonning ijtimoiy tajribasi, bilim darajasi, fikrlash doirasi va tasavvuri turlichadir. Shu boisdan, atrof-muhitda yuz berayotgan hodisalarni har kim o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda idrok etadi. O'quvchilarda bu jarayonni boshqarish uchun ularning qarashlari, ishonchi, ekologik tafakkuri va tasavvurlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik uslublar qo'llanilishi lozim.

Atrof-muhitni idrok etish jarayoni orqali o'quvchi jamiyat, tabiat, insonlar, voqealar, hatti-harakatlar va holatlar haqidagi ma'lumotlarni hissiy va tushuncha darajasida qabul qiladi. Bu esa ularning ongida borliq haqida yagona mushtarak tasavvur shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun idrok – ekologik tarbiyaning psixologik asoslaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu jarayon sezilarli darajada faol kechadi, chunki ularning tafakkuri faol shakllanish bosqichida bo'ladi.

Idrok faqat sezgi vositalari bilan emas, balki tafakkur, e'tibor, xotira va hissiyot bilan bog'liq bo'lib, tabiatni faqat aql bilan emas, balki qalb bilan his etishga imkon yaratadi. Shu sababli, atrof-muhitni ilmiy asoslangan, ekologik-estetik jihatdan idrok qilish, o'quvchida nafaqat bilim, balki tabiatga nisbatan estetik munosabat va axloqiy mas'uliyat hissini shakllantiradi. Haqiqatan ham, tabiatni ekologik-estetik idrok etmasdan turib, uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish qiyin. Chunki estetik zavq va hissiy ta'sir ekologik ongning chuqur ildizlariga asos bo'ladi. Hissiyotsiz, sezgidan yiroq yondashuv esa ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda etarli bo'la olmaydi.

Darsdan tashqari faoliyat – bu o'quvchi shaxsining ko'p qirrali jihatlarini, xususan ekologik ong va hissiy-estetik sezuvchanligini shakllantirishda samarali vositadir. Ekologik tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini to'laqonli anglash ko'pincha psixologik jihatdan murakkab bo'ladi. Bu holat o'quvchining shaxsiy dunyoqarashi, hissiy kechinmalari, axloqiy qadriyatlarini bilan bevosita bog'liqdir. Tabiatning estetik go'zalligi, uning hayotiy voqealardagi

ifodasi, jamiyatdagi ekologik muammolar o'quvchilarning axloqiy- ekologik hissiyotlarini uyg'otadi va ularning xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar, atrof-muhitni o'rganish darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda idrok qilish, fikrlash, kuzatish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan o'qituvchining faoliyati nafaqat bilim berish, balki tarbiyaning barcha bosqichlarida mantiqiy fikrlash va ekologik qadriyatlarni singdirish orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayon davomida o'quvchilar tabiat hodisalari mohiyatini chuqur tushunish, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni baholash malakasini egallab boradilar. Shu tarzda ular hayotda duch keladigan ekologik muammolarni hal qilish yo'llarini anglaydilar. Bunday faoliyat o'quvchining mustaqil fikrlash salohiyati, axloqiy ekologik hissiyotlari bilan uyg'unlashgan holda kichadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidova M. H. Boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiya orqali fuqarolik va milliy ongni rivojlantirish. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: TDPU, 2021. – 142 b.
2. Saidova M. H. Boshlang'ich sinfda fanlararo yondashuv asosida ekologik tarbiya. Avtoreferat. – Toshkent: TDPU, 2021. – 23 b.
3. Qodirova D. T. Boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslik darslari orqali ekologik tarbiya berishning ilmiy-metodik asoslari. PhD dissertatsiyasi. – Andijon: AndDU, 2022. – 136 b.
4. Shermatova G. Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik ongi va dunyoqarashini shakllantirishning samarali usullari. PhD dissertatsiyasi. – Termiz: TerDU, 2022. – 118 b.
5. Shermatova G. Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik ongi va dunyoqarashini shakllantirishning samarali usullari. PhD dissertatsiyasi. – Termiz: TerDU, 2022. – B. 53.
6. Saidova M. H. Boshlang'ich sinfda fanlararo yondashuv asosida ekologik tarbiya. Avtoreferat. – Toshkent: TDPU, 2021. – B. 5.

7. Ro'zmetova N. M. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda darsdan tashqari ishlarning o'rni. PhD dissertatsiyasi. – Nukus: QDU, 2023. – B. 42.
8. Qodirova D. T. Boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslik darslari orqali ekologik tarbiya berishning ilmiy-metodik asoslari. PhD dissertatsiyasi. – Andijon: AndDU, 2022. – B. 37.